

## NUTQIY INTENSIYANING SHAKLLANISH MEXANIZMLARI VA OMILLARI

Fayzullayeva Maftuna Odil qizi

(Toshkent gumanitar fanlar universiteti katta o‘qituvchisi;  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi;  
fmaftuna04@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20047313>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada nutqiy intensiyaning shakllanish mexanizmlari va unga ta’sir etuvchi omillar lingvopragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda nutq faoliyati jarayonida so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, uning yuzaga kelish bosqichlari hamda tinglovchiga yo‘naltirilgan ta’sir mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, nutqiy intensiyaning shakllantiruvchi motivatsiya, ijtimoiy muhit, shaxsiy tajriba kabi omillar hamda uni amalga oshirishda muhim bo‘lgan lingvistik va ekstralingvistik vositalar tahlil qilinadi. Maqolada nutqiy intensiyaning kommunikativ jarayondagi o‘rni va uning samaradorlikka ta’siri ilmiy asosda ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** nutqiy intensiya, lingvopragmatika, shakllanish mexanizmi, nutq faoliyati, motivatsiya, ijtimoiy muhit, nutqiy vaziyat, lingvistik vositalar, ekstralingvistik omillar, kommunikatsiya.

### Annotation

This article analyzes the mechanisms of formation of speech intention and the factors influencing it from a linguopragmatic perspective. The study highlights the communicative goals of the speaker, the stages of their formation, and the mechanisms of influence directed at the listener within the process of speech activity. It also examines the key factors shaping speech intention, such as motivation, social environment, and individual experience, as well as the linguistic and extralinguistic means involved in its realization. The role of speech intention in communication and its impact on communicative effectiveness are also discussed.

**Keywords:** speech intention, linguopragmatics, formation mechanisms, speech activity, motivation, social environment, speech situation, linguistic means, extralinguistic factors, communication.

Tilshunoslikda lingvopragmatikaga berilgan ta’riflarni tahlil qilganda, asosiy e’tibor so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqotga qaratiladi. Bu jarayonda so‘zlovchining tinglovchiga ta’siri, ya’ni nutq faoliyati markaziy masala hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, nutq faoliyati insonning umumiy hayotiy va ijtimoiy amaliyotidagi ajralmas jihat sifatida qaraladi. Fikr almashish va muloqot jarayoni insonning eng muhim va oliy faoliyatlaridan biri bo‘lib, u fikrlash va ijtimoiy o‘zaro ta’sirning asosiy vositasi hisoblanadi<sup>1</sup>. Nutq faoliyati davomida so‘zlovchining tinglovchiga ko‘rsatadigan ta’siri uning belgilangan maqsadiga bog‘liq bo‘ladi. Tinglovchiga qaysi maqsadda ta’sir o‘tkazilishi belgilanganiga qarab, so‘zlovchi o‘z xotira zahirasidan mos lisoniy vositalarni tanlab, nutqida ifodalaydi. Shu tarzda nutqiy faoliyat jarayoni boshlanadi, chunki “maqsad harakatga ma’no bag‘ishlaydi” – ya’ni maqsad nutqdagi harakat va ifodaga yo‘naltiruvchi asosiy kuch sifatida xizmat qiladi<sup>2</sup>.” Maqsad, yoki intensiya

<sup>1</sup> Супрун А.Е. Лекции по теории речевой деятельности. Мн., 1996. С.64.

<sup>2</sup> Арутюнова Н.Д. Язык цели // Логический анализ языка: Модели действий. М., 1992. С. 14.

“harakatga keltiradigan kuch demakdir.”<sup>3</sup> Shu bois, nutqiy intensiya lingvopragmatikaning muhim masalalaridan biri sifatida qaraladi. Nutqiy intensiyani tushunish uchun faqat soʻzlovchining ichki xotirasidagi omillar emas, balki unga taʼsir koʻrsatadigan turli tashqi pragmatik va kommunikativ vaziyatlarni ham hisobga olish zarur. E. S. Aznaurova bu jarayonni quyidagi savollar orqali tushuntiradi: “Kim – kimga – nima – qayerga – qachon – nima uchun – qanday qilib?” Birinchi ikkita element, yaʼni “kim” va “kimga”, aloqa ishtirokchilariga, yaʼni adresant va adresatga, ularning ijtimoiy va etnik xususiyatlariga bogʻliq. Murojaatchi nutq aktini yaratuvchisi sifatida oʻz niyatlarini amalga oshirish va ularni tinglovchi yoki qabul qiluvchida aniq ifodalashni maqsad qiladi<sup>4</sup>. Falsafa fanlari professori R. Jekendov “intensiya” atamasini falsafiy nuqtayi nazardan tushuntirarkan, bu tushunchaning asosiy mazmuni shaxsning ong faoliyati bilan bogʻliqligini taʼkidlaydi. U aytadiki, agar biz kimdirga nimanidir niyat qilganimizni bildirsak, bu paytda u odamning ongida aynan nima kechayotganini toʻliq bilish imkonimiz yoʻq. Shu sababli, niyatni oʻrganishda bizning eʼtiborimiz haqiqatning barcha jihatlarini aniqlashga emas, balki inson haqidagi tushunchani tushunishga qaratiladi. Yaʼni, intensiya subyektning biror obyekt yoki hodisaga yoʻnaltirilgan ong faoliyatidir, va bu faoliyatning mohiyatini tushunish insonning ichki dunyosini oʻrganish orqali amalga oshiriladi, lekin uning ichki tajribasini toʻliq aks ettirish shart emas.

A. A. Leontevning nutqiy intensiya haqidagi izlanishlariga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, u nutqiy intensiyani shunday taʼriflaydi: nutqiy akt, boshqa til hodisalari kabi, oʻz oldiga qoʻyilgan maqsad va vazifalar bilan xarakterlanadi va faoliyatga nisbatan bir butun boʻlib, faoliyatga boʻy sungan maqsadlar oraligʻida rivojlanadi. Shu nuqtayi nazardan, nutqiy aktlar tahlil qilinganda birinchi navbatda nutqiy intensiyalar yoki nutqiy maqsad bilan izohlanadigan omillar koʻrib chiqilishi kerak, ikkinchidan esa nutqiy intensiyalarning amalga oshirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar eʼtiborga olinadi.

A. A. Leontev nutqiy intensiyalarni yuzaga keltiradigan omillar va ularni amalga oshirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni alohida ajratib koʻrsatadi.

Nutqiy intensiyalarni yuzaga keltiruvchi omillar:

Motivatsiya – nutq faoliyatini boshlash va davom ettirishga sabab boʻluvchi ichki turtki.

Muhit afferentatsiyasi – tashqi sharoit va ijtimoiy muhitning nutqiy faoliyatga taʼsiri.

Aniqlangan tajriba – ilgari olingan bilim va nutqiy malaka.

Ish-harakatning vazifasi – bajarilishi lozim boʻlgan maqsad va vazifalar.

Nutqiy intensiyalarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi faktorlar:

Til – nutq faoliyati uchun ishlatiladigan vosita.

Til egallash darajasi – nutq vositalarini qanchalik samarali ishlata olish qobiliyati.

Funksional-stilistik xususiyatlar – nutq turining maqsadi va konteksti bilan bogʻliq jihatlar.

Sotsial-lingvistik omillar – nutq ishtirokchilari va ijtimoiy vaziyat taʼsiri.

Affektiv omillar – hissiy holat va ruhiy kayfiyat.

Shaxsiy nutqiy tajriba – ilgari olingan individual tajribalar.

Nutqiy kontekst – gaplashuvning vaziyatga bogʻliq sharoitlari.

Nutqiy vaziyat – nutq amalga oshiriladigan ijtimoiy va kommunikativ holat.

<sup>3</sup> Ключев Е. В. Речевая коммуникация. М., 2002. С.18.

<sup>4</sup> Mansurov R. Pragmatic intentions and their verbalization in different types of texts (on the materials of English language)// Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice. Т. 6. №7. 2020. P. 438.

Shunday qilib, nutqiy intensiya konsepsiyasi nutq faoliyatini boshqaruvchi va yo'naltiruvchi asosiy psixologik mexanizm sifatida ko'riladi. U nafaqat nutq aktining maqsadi va vazifalarini aniqlashga yordam beradi, balki nutq ijrosi jarayonidagi tanlovlarni va shakllanish mexanizmlarini tushunishga xizmat qiladi.<sup>5</sup>

Masalan, motivatsiya va tashqi muhitning afferentatsiyasi nutqiy akti boshlash va davom ettirishga qanday turtki berishi, ilgari olingan shaxsiy tajriba va maqsadning nutqiy intentsiyaga qanday yo'naltiruvchi kuch sifatida ta'sir qilishi izohlanadi. Shuningdek, nutq ijrosida til va til egallash darajasi, funksional-stilistik va sotsial-lingvistik omillar, hissiy holat (affektiv faktorlar), shaxsiy nutqiy tajriba, nutqiy kontekst va vaziyatning o'rni alohida tahlil qilinadi.

Bunday chuqur tahlil nutqiy intensiyalarni shakllantiruvchi va amalga oshiruvchi omillarning murakkab tizimligini aniqlashga imkon beradi. Tadqiqot davomida har bir faktor nutq faoliyatining turli bosqichlarida qanday ishlashini va bir-biri bilan qanday o'zaro ta'sir qilishini ko'rsatadi, bu esa nutqiy jarayonlarni yanada aniq va ilmiy asoslangan tarzda tushunishga xizmat qiladi.

Nutqiy intensiyalarni turli vazifalar va maqsadlar nuqtayi nazaridan ham tasniflash mumkin. Ulardan quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. O'quvchini qiziqtirish intensiyasi – tinglovchining diqqatini jalb qilish va mavzu bilan faol shug'ullanishini rag'batlantirishga yo'naltirilgan nutqiy maqsad.
2. Emotsional ta'sir ko'rsatish intensiyasi – tinglovchida ma'lum hissiy javobni uyg'otish va nutq orqali ularning ruhiy kayfiyatini boshqarishga xizmat qiladigan intensivlik turi.
3. Konseptual ma'lumotga muvofiq bilimlar tarkibini faollashtirish intensiyasi – tinglovchining ilgari olingan bilimlarini aniqlash, ular bilan yangi ma'lumotni bog'lash va tushunishni kuchaytirishga qaratilgan nutqiy maqsad.
4. O'quvchining ijodkorligini rivojlantirish intensiyasi – tinglovchining mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini rag'batlantirishga xizmat qiluvchi nutqiy faoliyat turi.
5. Konseptual olam tasvirini qayta ifodalash intensiyasi – mavzuga oid tushunchalarni yangi shaklda yoki o'ziga xos tarzda ifodalash orqali tinglovchida tushuncha va idrokni boyitishga yo'naltirilgan nutqiy maqsad.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy intensiyalardan qanday foydalana olish, kelajakda tinglovchi bilan muloqotning davomiyligi va ikki tomonlama munosabatlarning sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, nutqiy intensiya tinglovchi va so'zlovchi orasidagi samarali “ko'prik” sifatida xizmat qiladi, ya'ni u faqat ma'lumotni yetkazish vositasi emas, balki kommunikatsiya jarayonining asosiy mexanizmi hisoblanadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Арутюнова Н. Д. Язык цели // Логический анализ языка: Модели действий. М., 1992. С. 14.
2. Ключев Е. В. Речевая коммуникация. М., 2002. С.18.
3. Леонтьев А. А., Издательство «Наука», 1974 г., Сс. 24, 30-36.)

---

<sup>5</sup>А. А. Леонтьев. Издательство «Наука», 1974 г., Сс. 24, 30-36.)

4. Mansurov R. Pragmatic intentions and their verbalization in different types of texts (on the materials of English language)// Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice, Т. 6. №7. 2020. Р. 438.
5. Супрун А. Е. Лекции по теории речевой деятельности. Мн., 1996. С.64.